

ISSN 2181-7324



**O'ZBEKISTON
MILLIY
UNIVERSITETI**

XABARLARI

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
YO'NALISHI**

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА НУУЗ



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУГ'БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/2**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАДЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишоновна О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Утамурадов А. – ф.ф.н., проф.

Ахмедов Х.А. – с.ф.д.

Мирзаахмедов К.М. – с.ф.ф.д., PhD.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддикова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022



Aziza *FAYZIYEVA*,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, PhD Fayzullayev O.M. taqrizi asosida

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF WORKS ON PERSONAL DEVELOPMENT

Abstract

This article discusses the linguistic features of personal development works. The classification of thematic types of such works, the factors determining the level of reliability of the text of the work and their linguistic features are analyzed.

Key words: personal development, metadiscourse, markers, discourse, reliability, rhyme, phrase.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАБОТ ПО ЛИЧНОСТНОМУ РАЗВИТИЮ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвистические особенности личностно-развивающих работ. Анализируются классификация тематических типов таких произведений, факторы, определяющие уровень достоверности текста произведения и их языковые особенности.

Ключевые слова: личностное развитие, метадискурс, маркеры, дискурс, достоверность, рифма, фраза.

SHAXSIY RIVOJLANISHGA OID ASARLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning lingvistik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bunday asarlarning mavzuiy turlar klassifikatsiyasi, asar matning ishonchlik darajasini belgilovchi omillar hamda ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shaxsiy rivojlanish, metadiskurs, markerlar, diskurs, ishonchlik, olmosh, so'z birikmasi.

Kirish. Shaxsiy rivojlanishga oid asarlar Amerika adabiyotida "self-help/self-improvement books" nomi bilan mashhur bo'lib, bunday kitoblarning ommalashuvi 20-asrga kelib bir necha milliard dollarlik yirik biznesga aylandi. Inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bu kabi kitoblar o'quvchini mutaxassis ko'magisiz hayotining xohlagan sohasini - shaxsiy munosabatlar, shaxsiy sifatlar, moliyaviy va kasbiy o'sish, oilaviy munosabatlar singari jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Mashhur gumanist psixolog Maslouning ehtiyojlar piramidasiga ko'ra o'z-o'zini rivojlantirish inson ehtiyojlarining eng yuqori cho'qqisida turadi. Insonning o'z yashirin imkoniyatlarini haqiqatga aylantirish ehtiyojiga ishora qilib, Maslou shunday tushuntiradi "Inson nimaga erishishi mumkin bo'lsa, u shunga erishishi lozim". Hayotda o'z o'rmini topgan shaxs o'zligini anglagan, boshqalarning fikrlari bilan

emas, balki shaxsiy rivojlanish va o'z imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish bilan band bo'ladi.

Ushbu kitoblar bezovtalik, stress, depressiya, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy salomatlik, o'z-o'zini hurmat qilish, zararli odatlarga mutelikdan qutulish, inson ruhiyatini va ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha tavsiyalar beradi. O'zini takomillashtirish kitoblarining umumiy mavzulari o'zlikni kashf qilish, ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, qiyinchiliklarni yengish va to'laqonli hayot kechirishni o'z ichiga oladi. Bu asarlarning deyarli barchasida o'quvchiga yetkaziladigan yagona g'oya - bu "siz o'zingizni takomillashtirishingiz mumkin" [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar xususiyatlari ularning mavzulari va yozish uslubiga ko'ra klassifikatsiya qilingan (1-jadval)

Shaxsiy rivojlanishga oid kitoblar mavzulari	O'zini sevish/ o'zida mavjud qobiliyatlarni va shaxsiy sifatlarini qadrlash; O'ziga ishonch Samarador inson bo'lish Orzulariga ishonish/qalb amriga bo'ysunish Emotsional stress bilan kurashish Hayotini, ishini davom ettirishga bo'lgan jasorat Tushunmovchiliklarga chidamlilik Yomon xabarlarni qabul qila olish O'ziga bo'lgan shubhalardan xalos bo'lish Hayotiy maqsadini aniqlash Baxtli bo'lishga intilish Taqririni anglash Tavakkal qilishdan qo'rqmaslik Hissiy-emotsional muvozanat Dunyoqarashini kengaytirish Oilaviy munosabatlar Kechirimlilik Do'stlik Kasbiy rivojlanish
--	--

	Baxt Ijobiy munosabat Shaxsiy yetuklik O'tmishdan xulosa chiqarish Yaxshi nom qoldirish Esda qolarli hayot kechirish Bezovtalikni yengish Qalb halovati Optimizm Haqiqiy hayotga tayyorlash Munosabatlar O'zlikni anglash O'zini hurmat qilish O'z imkoniyatlaridan oqilona foydalanish Javobgarlikni, majburiyatlarni bo'yniga olish Imkoniyatlariga ishonish Donolik
Yozilish uslubi	Muallifning shaxsiy tajribalarini o'z ichiga oladi O'quvchini yo'naltiradi / maslahat beradi va ilhomlantiradi Ilhomlantiruvchi kichik hikoyalar O'ziga jalb etuvchi/tafakkur qilishga chorlovchi Axborot beradi va ruhlantiradi Interaktiv - fikr yuritishga undaydi 7. Shaxsiy

1-jadval. Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar xususiyatlari klassifikatsiyasi

Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarning asosiy ijtimoiy maqsadi o'quvchini ishonitirish, ya'ni muallif tomonidan berilayotgan maslahat va takliflar uni "sotib olishga" arzishiga ishonitirish. Lingvist olimlar Virtanen va Holmari ishonitirish bu tinglovchilar fikrini yoki xatti-harakatini o'zgartirishga yoki uning ishonchini mustahkamlashga harakat qiladigan barcha lingvistik xatti-harakatlar deya ta'rif berishgan, ya'ni ular tadqiqotlarida ishonitirishga lingvistik hodisa sifatida yondashilgan [9, 3-24].

Muhokama. Dafouz-Milne matnning ishonitiruvchanlik darajasi matniy metadiskursiv markerlar va shaxslararo metadiskursiv markerlarning matnda necha marotaba ishlatilishiga bog'liqligini tadqiq qilgan. Dafouz-Milne tadqiqotida matniy metadiskursiv markerlarga mantiqiy markerlar (shuningdek, bundan tashqari, lekin), ketma-ketliklar (masalan, birinchidan, ikkinchidan, boshqa tomondan) va eslatmalar (keling mana bu mavzuga qaytsak, yuqorida aytib o'tilganidek)ni o'z ichiga olsa, shaxslararo metadiskursiv markerlariga aniqlik markerlari (shubhasiz, aniqki), tegishlilik markerlari (x ta'kidlaganidek, y fikriga ko'ra) va munosabat markerlari (afsuski, ishonchim komilki) kiradi. Milne xulosasiga ko'ra, so'rovnoma respondentlari ushbu ikki metadiskursiv markerlarning teng miqdorda ishlatilishi matnning ishonarlilik darajasini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlashgan. [4]

Koay Dong Lian esa har qanday matnning xususan, shaxsiy rivojga oid diskurslarning o'quvchini ishonitirishi ikki narsaga - muallifning ishonchliligi hamda o'quvchining matnga faol jalb qilinish darajasiga bog'liqligini aytgan. [7, 30-38] Yuqoridagi birinchi xususiyat, ya'ni muallifning ishonchliligi matnning janriy xususiyatidan kelib chiqib turlicha usullar bilan ko'rsatilishi mumkin. Ilmiy matnlarda

ishonchlilik boshqa olimlar ishlariga beriladigan havolalar orqali oshiriladi, bunda matn muallifi o'z ilmiy qarashlarini boshqa olimlar ishi orqali isbotlaydi hamda o'z sohasi bo'yicha adabiyotlardan xabardorligini ko'rsatadi. Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarda esa o'quvchini ishonitirish, ya'ni yozuvchi shaxsiga o'quvchining ishonishi boshqa lingvistik unsurlar orqali amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor yozuvchining o'quvchi muammosiga hamdardligini ko'rsatish, yozuvchining asl maqsadi o'quvchiga yordam berish, ko'tarilayotgan muammolarda yozuvchi o'quvchi bilan hammaslak ekanini anglatish muallifning tajribasini o'quvchi boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan tajriba sifatida ifodalash orqali amalga oshiriladi. Ilmiy matn uslubiga qarama-qarshi tarzda shaxsiy rivojlanish diskursida barcha maslahatlar muallifning hayotiy tajribasiga asoslanadi. O'zini o'zgartirish, o'zini takomillashtirish haqidagi hayotiy hikoyalarda "men" olmoshi eng ko'p qo'llanilib, matn birinchi shaxs nuqtai nazaridan tuzilgan gaplardan iborat bo'ladi.

O'quvchini matnga jalb qilish xususiyati esa Haylend tomonidan taklif etilgan tizimga ko'ra besh elementdan iborat: o'quvchiga qaratilgan olmoshlar, direktivlar, savollar, barchaga ma'lum bilimlar hamda shaxsiy qarashlar. [6]

Shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarning registr xususiyalari tadqiqida, tadqiqot uchun tanlab olingan 20ta shu turdagi asarlarda "siz/sizning" (you/your) olmoshlarining ishlatilish tezligi 15 ta eng ko'p uchraydigan so'zlar ichida, siz 6-o'rinni, sizning esa 13-o'rinni egallagan. Holbuki, buyruq maylidagi gaplarda implisit qo'llaniladigan siz/sen olmoshi bu o'rinda hisobga olinmagan. Shuningdek, shaxs olmoshlaridan men so'zi eng ko'p ishlatilishi jihatdan 10, biz esa 12-o'rinda kelgan (2-jadval)

O'rin	So'z turi	Necha marta ishlatilgan
-------	-----------	-------------------------

1	the	56572
2	to	43636
3	and	35436
4	of	33359
5	a	28930
6	you	23640
7	in	21432
8	that	20545
9	is	16175
10	i	18400
11	it	14239
12	we	12029
13	your	10100
14	for	9710
15	with	8572

2-jadval. Shaxsiy rivojlanishga oid tanlangan asarlarda ko'p uchraydigan so'zlar

Ikkinchi shaxs olmoshlarining boshqa diskurslar (so'zlashuv, ish bo'yicha e'lonlar, shaxsiy rivojlanishga oid asarlar, yangiliklar, badiiy adabiyot hamda ilmiy matnlar)da

qo'llanilishi o'rganilgan tadqiqotda ham siz/sen olmoshi o'quvchiga murojaat tarzida shaxsiy rivojlanishga oid kitoblarda ko'p ishlatilishi xulosalangan (3-jadval).

Diskurs turi	Har 10,000 ta so'zda ishlatilish soni
So'zlashuv	300
Ish e'lonlari	193
Shaxsiy rivojlanish kitoblari	178
Yangiliklar	20
Badiiy adabiyot	10
Ilmiy matnlar	10

3-jadval. Ikkinchi shaxs olmoshlarining turli diskurslarda ishlatilishi

Jadvalda ko'rinib turganidek, tinglovchiga, o'quvchiga qaratilgan olmoshlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar yozma matn bo'lsa-da, unda so'zlashuv uslubi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Stayn bu janrdagi asarlar so'zlashuv uslubida, o'quvchiga tez-tez murojaat qilib turish orqali yozilsa muvaffaqiyat keltirishini yozadi. Demak, shaxsiy rivojlanish kitoblarining yana bir xususiyatlaridan biri uning o'quvchiga yo'naltirilganligi ekan.

Ikkinchi shaxs olmoshi siz/sen gapda grammatik jihatdan ega vazifasida kelishi tahlil natijalarida ayon bo'ladi. Ingliz tilida you olmoshi kelishiklarda turlanmagani sababli, gapda ega vazifasida kelganda ham, to'ldiruvchi vazifasida

kelganda ham bir xil shaklda namoyon bo'ladi. Funktsional jihatdan "you" har 10,000 so'zdan 131 tasida ega vazifasida takror uchraydi, 28 ta holatda esa to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi. 82 foizda olmoshning ega vazifasida kelishi shaxsiy rivojlanish janrining aynan o'quvchiga qaratilganini isbotlaydi hamda o'quvchini o'qish jarayonida faol ishtirokchi roliga o'tkazadi.

Qaratqich kelishigini olgan shaklda, ya'ni sizning/sening shaklida ot bilan so'z birikmasi yasalganda, tahlil qilingan adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan birikmaga kirishuvchi otlarning 15tasi quyidagilar (4-jadval):

O'rin	So'z birikmasidagi otlar	Necha marta ishlatilgan
1	hayot	806
2	aql	329
3	bola	202
4	tana	179
5	oila	131
6	maqsad	122
7	talant	117
8	do'st	94
9	miya	92
10	fikrlar	84
11	diqqat	82
12	yurak	79
13	ish	79
14	vaqt	71
15	turmush o'rtoq	59

4-jadval. Sizning/sening + ot birikmasida eng ko'p qo'llangan otlar

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sizning/sening + ot so'z birikmasida hayot so'zi eng ko'p birikma yasovchi ot bo'lib, bu turdagi kitoblar asosiy e'tibor o'quvchining hayotiga qaratilganidan dalolat beradi. Keyingi o'rinlarda esa tafakkur jarayoniga oid so'zlar: aql, maqsadlar, miya, fikrlar va diqqat so'zlari umumlashma holda 709 marta ishlatilgan. O'quvchining fikrlash tarzini o'zgartirgan holda, uning

hayotini o'zgartirish maqsadi ushbu so'z birikmalari orqali ifodalangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlar ushbu janrga oid bo'lishi uchun bir necha xususiyatlarni qamrab olishi kerak va har bir xususiyat maxsus lingvistik vositalar bilan amalga oshiriladi. Xususan, o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri murojaat, ikkinchi shaxs olmoshlarning tez-tez ishlatilishi, ushbu olmoshlar bilan

o'quvchining hayoti va fikrlashiga ta'sir o'tkazish uchun hayot, maqsadlar, diqqat, miya kabi so'zlar ishtirokidagi so'z birikmalarining takror kelishi shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarning o'ziga xos uslubi ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Bergsma, A. (2008). Do self-help books help? *Journal of Happiness Studies*, 9(3), 341-360.
2. Coyle, K., & Grodin, D. (1993). Self-help books and the construction of reading: Readers and reading in textual representation. *Text & Performance Quarterly*, 13(1), 61.
3. Cumming, A. (2013). Multiple dimensions of academic language and literacy development. *Language Learning*, 63, 130-152. doi: 10.1111/j.1467-9922.2012.00741.x
4. Dafouz-Milne, E. (2008). The pragmatic role of textual and interpersonal metadiscourse markers in the construction and attainment of persuasion: A cross-linguistic study of newspaper discourse. *Journal of Pragmatics*, 40(1), 95-113.
5. Dolby, S. K. (2005). *Self-help books: Why Americans keep reading them*. Illinois: University of Illinois Press.
6. Hyland, K. (1994). Hedging in academic writing and EAF textbooks. *English for Specific Purposes*, 13(3), 239-256. doi: [http://dx.doi.org/10.1016/0889-4906\(94\)90004-3](http://dx.doi.org/10.1016/0889-4906(94)90004-3)
7. Koay, D. L. (2015). *Self-improvement books: A genre analysis*.
8. Stine, J. M. (1997). *Writing successful self-help and how-to books*. New York: John Wiley & Sons, Inc.
9. Virtanen, T., & Halmari, H. (2005). Persuasion across genres: Emerging perspectives. In H. Halmari & T. Virtanen (Eds.), *Persuasion across genres: A linguistic approach* (pp. 3-24). Amsterdam: John Benjamins.